

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 53 (1652), 2026-yil 19-mart, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news




yuz.uz_news



SAMARQAND ISHSIZLIK VA KAMBAG‘ALLIKDAN XOLI, BARQAROR RIVOJLANISH BO‘YICHA NAMUNALI VILOYATGA AYLANADI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 18-mart kuni Samarqandda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va boshqa sohalardagi loyihalar bilan tanishish hamda yangilarini ishga tushirish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha navbatdagi ustuvor vazifalarni belgilash maqsadida ushbu viloyatga tashrif buyurdi.



Mamlakatimizdagi islohotlar haqida gap ketganda, avvalo, "Inson qadri uchun" va "Xalq manfaati barcha narsadan ustun" degan tamoyillar, albatta, tilga olinadi. Binobarin, bu g‘oyalari yangi O‘zbekistonning eng asosiy, eng ustuvor, eng dolzarb mezonidir. Ko‘z o‘ngimizda qad rostlayotgan ulkan imoratlar,

yirik sanoat korxonalari, ishlab chiqarish subyektlari, infratuzilma obyektlari, umuman, barcha-barchasi ayni shu maqsadga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Ha, yaqin-yaqin gacha go‘yo imkoni yo‘qdek tuyulgan ishlar qisqa muddatlarda bajarilmoqda. Ularning samarasini har birimiz o‘z hayotimiz,

turmush tarzimiz, faoliyatimiz misolida ko‘rib, sezib, bilib turibmiz. Ya‘ni avvalboshdan qo‘yilgan vazifa jadal uddalanmoqda. Orzular ushlab, niyatlar ijobat bo‘lmoqda. Hayot o‘zgarimoqda. Bu shiddatkor ishlar to‘yobi, ayniqsa, chekka-chekka hududlar misolida bo‘y ko‘rsatayotgani e‘tiborga molik.

Prezidentimizning Samarqand viloyatiga tashrifi buning yaqqol tasdiqi bo‘ldi. Chunki tashrif davomida viloyat taraqqiyotiga daxldor qator loyihalar ko‘zdan kechirilib, ishga tushirildi. Ular, hech shubhasiz, hudud ahli hayotini yanada yaxshilashga xizmat qilish barobarida

mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Bugungi yangi O‘zbekiston yoshlari — haqiqiy baxtli avlod vakillari. Sababi, yurtimizda ularning o‘qishi, ilm olishi, kasb egallashi, umuman, jamiyatda munosib o‘rin topib, Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shishi

uchun zarur shart-sharoit muhayyo etilyapti. Bu masala shaxsan davlatimiz rahbarining doimiy e‘tibori va nazoratida. Prezidentimiz viloyatga tashrifi davomida ilk manzil sifatida Samarqand shahridagi Yoshlar kreativ parki bilan tanishgani fikrimizning yaqqol isbotidir.

▶ Davomi 4-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

MUBORAK RAMAZON HAYITINI NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda bu yilgi muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli joylarda mahalliy hokimliklar va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, keksa va nogiron insonlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, iftorlik marosimlari hamda xayriya tadbirlarini ixcham va tartibli tashkil etishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi Yangi O‘zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish, inson qadri yuksaltirish, jamiyatda tinchlik, do‘stlik, o‘zaro hurmat, saxovat, bag‘rikenglik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilayotganini ta‘kidlash lozim.

Ana shunday euzu va savob ishlarni izchil davom ettirgan holda, muqaddas Ramazon hayitini har tomonlama munosib kutib olish, uning insonparvarlik mohiyatini keng targ‘ib etish maqsadida qaror qilaman:

1. Joriy yilda Ramazon hayitining birinchi kuni 20-mart — juma kuniga to‘g‘ri kelishi haqidagi O‘zbekiston musulmonlari

idorasining axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda 2026-yil 20-mart kuni Ramazon hayiti bayrami sifatida keng nishonlanin.

2. Quyidagilar:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Ramazon hayitini hududlarda xalqimizning milliy an‘ana va urf-odatlariga hamda Navro‘z umumxalq bayramiga uyg‘un holda ko‘tarinki ruhda nishonlash, bayram kunlarida aholi o‘rtasida mehr-oqibat, hamjihatlik va bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan madaniy-ma‘rifiy

hamda xayriya tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

b) Turizm qo‘mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtodoshlarimiz uchun Ramazon hayiti kunlarida mo‘tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlarga ziyoratlarini tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilsin.

3. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon hayitini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi S. U. Umurzakov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 17-mart

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Navro‘z umumxalq bayrami va muborak Ramazon hayitini nishonlash arafasida xalqimizga xos ezigulik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, kechirimli bo‘lish kabi olijanob fazilatlarini namoyon etgan holda hamda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdiqi sifatida "Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida"gi Farnomni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan 392 nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning 223 nafari asosiy jazodan to‘liq ozod etildi, 82 nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 34 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 53 nafar shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning 3 nafari chet el fuqarolari, 26 nafari ayol, 14 nafari 60 yoshdan oshgan erkaklar, 166 nafari yoshlar hamda 24 nafarining taqzilangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas‘ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

O‘ZA

ISLOM CIVILIZATSIYASI MARKAZI – ILM-FAN VA MA‘RIFATNING BEBAHO XAZINASI



O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimi tom ma‘noda tarixiy voqea bo‘ldi. Mazkur yirik va noyob majmua xalqimizning uch ming yillik tarixi, bunyodkorlik salohiyati, jahon tamadduniga qo‘shgan ulkan hissasi, buyuk ajdodlarimizning madaniy-ma‘rifiy merosini chuqur o‘rganish va keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

▶ Davomi 3-betda

Munosabat

ISLOM SIVILIZATSIIYASI MARKAZI – ILM-FAN VA MA'RIFATNING BEBAHO XAZINASI

Boshlanishi 1-betda

AQL VA IDROKKA TASANNOLAR AYTIHQDA



Rustam KALONOV,
Toshkent shahri "Nuroniyy"
jamg'armasi raisi, senator

Prezidentimiz markazning asosiy vazifasi islomning haqiqiy gumanistik va ma'rifiy mohiyatini ko'rsatishdan iborat ekanini ta'kidlagan edi. Ushbu markazga tamal toshi qo'yilishidan tortib, ochilish marosimigacha bo'lgan jarayonlarda ishtirok etganimdan faxrlandim, to'qinlandim. Kechagi ochilish marosimidagi tanishuv jarayonida guvohi bo'lganimiz — rang-barang ekspozitsiyalar, kutubxonada to'plangan nodir qo'lyozmalar, elektron adabiyotlar va xalqimizning boy tarixiy merosi namunalari bu fikrni yaqqol namoyon etdi.

"Har qanday millatni anglash, bilish uchun uning tarixi va madaniyati, insoniyat tamadduniga qo'shgan hisssasi bilan tanishish kerak", degan ibratli gapning mohiyatini bu yerda yanada chuqurroq his etdik.

Islom tarixi va merosini turli zamonaviy vositalar orqali yoshlar tafakkuriga yetkazib bera oladigan bunday ilmiy-ma'rifiy markaz bugungi dunyoda juda ham zarur. Shu bilan birga, u jahon hamjamiyatiga xalqimizning ma'rifiy qarashlarini ko'rsatib beradi, boy ilmiy-madaniy merosimizni targ'ib etadi.

Avvallari yurtdoshlarimiz dunyoning turli joylariga sayohatga yoki xizmat safariga borganda, chet elliklar ularning qayerdan kelganini so'raganini va yurtimiz nomini bilmasligini nadomat bilan aytardi. Bu mahobatli majmua va undagi meros namunalari esa xorijlik mutaxassislar fikrini butunlay o'zgartirib yuboryapti. Manaman degan davlat rahbarlari ham bunday aql va idrokka tasannolar aytmogda. Arab mamlakatlaridan kelgan turli soha vakillari: "Biz ham shunday binoni barpo qilishimiz mumkin edi, ammo ko'rsatishga arzigulik nimalar bilan to'ldirardik? Bizda bunaqa manba yo'q. O'zbekiston ilm-fan doirasida, davlatchilik miqyosida mamlakat va xalq nufuzini, tafakkur ko'lamini, yutuqlarini aniq dalillar bilan namoyon qiladigan, manbalarga boy mamlakat ekan", deb tan beryapti.

Boy merosimizni o'rganish hamda anglash maskaniga tashrif buyurgan har qanday kishi tariximiz ko'lamini, uning mohiyatini ongida, vujudida his etadi.

Shuni yana takror va takror aytgim keladiki, bu markaz yoshlar uchun juda katta tarixiy manba bo'ldi. Shu bois, ular faqatgina ana shunday buyuk ajdodlarning vorislarimiz deya faxrlanib qolmay, ularga munosib bo'lishga intilishini, ilm o'rganishdan hech qachon to'xtamasligini istardim. Bu esa ularning Uchinchi Renessansi yaratishda munosib hissa qo'shishiga xizmat qilishi shubhasiz. Axir yurt farovonligi ham, yuksalishi ham, avvalo, ilmga va ta'lim-tarbiyaga bog'liq ekanini yaxshi bilamiz.

Ushbu markaz dunyo hamjamiyatiga boy merosimizni namoyon etadigan, uni keng targ'ib qiladigan va millatlararo hamkorlikni mustahkamlaydigan ishonchli ko'priq bo'lib qoladi.



O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ularning boy ilmiy merosi bugungi kungacha insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Yangi ochilgan markaz esa ana shu bebaho merosni chuqur o'rganish, ilmiy tadqiq etish va uni zamonaviy usullar orqali keng jamoatchilikka yetkazishni maqsad qilgan.

BUYUK MEROSNI HAYRAT BILAN KUZATDIM

Ushbu muzeyni so'nggi yillarda islom olamida barpo etilgan eng yirik madaniy-ma'rifiy markazlaridan biri deb bemaol aytish mumkin. U nafaqat O'zbekiston, butuni islom dunyosi uchun muhim maskan bo'lib xizmat qiladi.

Bu yerda islomdan avvalgi davrdan tortib, bugungi kungacha O'zbekiston hududida shakllangan islom sivilizatsiyasi tarixi juda ta'sirli tarzda namoyish etilgan. Markazda tarixiy meros nafaqat an'anaviy usullar orqali, shuningdek, sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida ham yoritilgan. Shu bois, bu maskanga kirgan inson tomosha zavqi bilan birga haqiqiy ma'noda katta bilimga ham ega bo'ladi.

Ushbu markazni barpo etishda mehnat qilgan barcha insonlarga chuqur minnatdorlik bildiraman. Toshkentda yashovchi inson, shu bilan birga, musulmon sifatida aytishim mumkin, bu yerga kelganlar tariximizni o'rganib, undan zavq oladi va islom sivilizatsiyasining buyuk merosini hayrat bilan kuzatadi.

Men Toshkentdagi bunday iftor tadbirida ikkinchi bor qatnashdim. Unda ko'plab diplomatik korpus vakillari, elchilar va diplomatlar ham ishtirok etdi. Barchamizni bir joyga jamlagan uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Janob Shavkat Mirziyoyevga alohida minnatdorlik bildirariz.



Ufuk ULUTASH,
Turkiyaning O'zbekistondagi
Favqulodda va muxtor elchisi

Ramazoning so'nggi kunlari, Navro'z bayrami hamda Ramazon hayiti arafasida o'tkazilayotgan bunday uchrashuvlar qarodoshlarni birlashtiradigan juda go'zal an'anadir.

TAMADDUNNING MUHTASHAM RAMZI



Sherzod NIYAZIMBETOV,
Nukus tumani "Biogumus" fermer
xo'jaligi rahbari

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish munosabati bilan tashkil etilgan iftor tadbirida ishtirok etish men uchun katta sharaif va unutilmas voqea bo'ldi. Davlatimiz rahbari shaxsan o'zi ishtirok etgani esa bu tadbirga yanada mazmun va ahamiyat bag'ishladi.

O'zbekiston zaminidan azaldan buyuk islomiy tamaddunning muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. Xalqimiz tarixi, madaniyati, ma'naviyati va urf-odatlari islom qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq. Yurtimizda asrlar davomida ilm-fan, ma'rifat va adolat g'oyalari islom ruhiyatiga asosida shakllangan va rivojlangan. Buyuk ajdodlarimiz nafaqat yurtimiz, balki butun insoniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa

qo'shgan. Ularning ilmiy va ma'naviy merosi bugungi kunda ham yosh avlod uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Ular yaratgan ilm maktabi va madrasalari O'zbekistonning islom sivilizatsiyasida tutgan o'rmini yanada mustahkamlaydi.

Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki madaniy muloqot, ma'naviy tarbiya va xalqaro hamkorlik uchun ham katta maydondir. Bu kelajak avlod uchun bilim va ma'rifat manbai, yurtimiz madaniyati va sivilizatsiyasining kafolati rivoji uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

O'zbekiston boy tarix va madaniyat sivilizatsiyasining zamonaviy markazlaridan biriga aylangan davlat. Uch ming yillik shonli tariximiz va boy madaniyatimiz, yangi O'zbekistonning ulkan imkoniyatlarining yaqqol ifodasi bo'lgan, milliy ruh bilan yo'g'rilgan ushbu markazda bir vaqtning o'zida yurtimizning qadimiy tarixi durdonalarini ko'rish, o'zbek xalqining intellektual va madaniy salohiyatiga aniq ishonch hosil qilish mumkin.

Markaz qariyb 10 gektar maydonda joylashgan bo'lib, bu yerda "O'zbekiston zaminida islomgacha bo'lgan davr", "Birinchi va Ikkinchi Renessans", "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans poydevori" kabi ekspozitsiya zallari tashkil etilgan.

Prezidentimiz markaz ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun fundamental baza bo'lishini alohida ta'kidlab o'tdi. Eng muhimi, bu markaz yoshlarimiz uchun mustahkam ma'naviy tayanch bo'lishi, yangi Xorazmiylar, Beruniy va Ulug'beklar, Farg'oniy va Ibn Sino, Buxoriy va Termiziyalarning yetishib chiqishiga xizmat qilishi yurtimiz azaldan buyuk tarixiga ega ekanini yana bir marta isbotlaydi.

BAG'RIKENGLIK VA EZGULIK MAYOG'I

Joriy yilning 17-mart kuni yurtimiz ma'naviy hayotida unutilmas voqea — Islom sivilizatsiyasi markazining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bu ulug' dargoh nafaqat boy tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilish, balki zamonaviy ilm-fan, ma'rifat va madaniyatni uyg'unlashtirgan holda kelajak avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Markaz asrimizning haqiqiy ma'rifat mayog'i sifatida insonlarni ezgulik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat ruhida birlashtirishga xizmat qiladi. Bugun butun dunyo tinchlik va o'zaro ishonchga ehtiyoj sezayotgan bir paytda ushbu maskan ana shunday yuksak qadriyatlarini targ'ib etuvchi muhim ma'naviy ko'priq bo'lishi shubhasiz.

Mamlakatimizning uch ming yillik shonli tarixi va boy madaniyati, yangi O'zbekiston imkoniyatlarining yorqin ko'zgusi bo'lgan ushbu betakror va ulug'vor majmuaing ochilish marosimida ishtirok etishimning o'zi qalbmizga bir olam zavqu shavq va o'zgacha harorat baxsh etdi.

Bunday ta'rifi beqiyos koshonaning g'aroyib va ajoyib jihatlari haqida gapirishga esa til ojiz. Eng asosiy, ushbu markazning shunday ulug' kunlarda ochilishi, unda ishtirok etishim ayollik, onalik va buvilik davridagi eng halovatli, eng go'zal va ajib bir nurli kun bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining "Islom sivilizatsiyasi markazining Ulug'bek darvozasi pesthoqiga Qur'oni karimning "Iqra", ya'ni "O'qil" degan muborak oyatini muhrab go'yidik. Bu ilohiy so'zlar zamirida islom dinining asl ma'no-mazmuni mujassam desak, ayni



Farida ABDURAHIMOVA,
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti
bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari
nomzodi, professor

haqiqatni aytgan bo'lami. Xalqaro ekspertlar e'tirof etganidek, bugun O'zbekistonda islom sivilizatsiyasi merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha o'ziga xos katta ilmiy maktab yaratishga erishdik. Naqadar katta imkoniyatlarimiz, intellektual salohiyatimiz borligini dunyoga namoyon eta oldik. Bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi", degan so'zlari esa chindan ham qalbmizga nur kabi singib ketdi.

Hech shubhasiz, ushbu ulug'vor markaz O'zbekistonimizning dovrug'ini yetti iqlimga yanada mashhur qiladi. Bunga har bir yurtodoshimiz ayni dargohga qadam qo'yganda to'la amin bo'ladi.

SHONLI O'TMISHIMIZGA MOS ULUG'VOR MAJMUA



Akmal NURIDDINOV,
O'zbekiston Badiiy
akademiyasi raisi,
O'zbekiston xalq rassomi

Islom sivilizatsiyasi markazining tantanali ochilishi nafaqat mamlakatimiz, balki butun islom olami va jahon jamoatchiligi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi, desam yangilishmayman. Zero, ushbu markaz yurtimizning ko'p asrlik ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganish, asrab-avaylash va keng jahonga namoyon etish yo'lidagi eng yirik loyihalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ularning boy ilmiy merosi bugungi kungacha insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Yangi ochilgan markaz esa ana shu bebaho merosni chuqur o'rganish, ilmiy tadqiq etish va uni zamonaviy usullar orqali keng jamoatchilikka yetkazishni maqsad qilgan.

Markaz zamonaviy infratuzilimga ega bo'lib, unda noyob qo'lyozmalar, qadimiy manbalar, interaktiv ekspozitsiyalar va ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu yerda xalqaro ilmiy anjumanlar, konferensiyalar va ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan esa uning ahamiyatini yanada oshiradi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, markaz kelgusida jahon miqyosidagi ilmiy-ma'rifiy maskanlardan biriga aylinishi kutilmoqda.

Eng muhimi, mazkur dargoh bugungi globallashuv sharoitida insonlarni birlashtiruvchi, tinchlik, bag'rikenglik

va o'zaro hurmat g'oyalarni targ'ib etuvchi ma'naviy makon sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda uning o'rni beqiyos. Chunki bu yerda tarix va zamonaviylik uyg'unlashtirilib, insonni ma'nan boyituvchi muhit yaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, Islom sivilizatsiyasi markazi yurtimizning ma'naviy hayotida ham yangi sahifa ochdi. U nafaqat o'tmishni anglash, balki kelajakni barpo etish yo'lidagi mustahkam poydevor bo'ladi.

INTELLEKTUAL SALOHIYATNI NAMOYON ETUVCHI MASKAN



Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik masalalari
qo'mitasi raisi

Bugun jahonda turli qarama-qarshiliklar, tahlikali vaziyatlar kuchayib borayotgan bir sharoitda tinchlik, bag'rikenglik va ma'rifat g'oyalarni ilgari surish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

yaxshilash kabi ishlar aynan shu qadriyatlarimiz amaldagi ifodasi.

Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat tarixiy yodgorliklar jamlangan joy, balki zamonaviy ilmiy-tadqiqot va ma'rifiy markaz sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bu yerda joylashtirilgan ekspozitsiyalar xalqimizning boy tarixi, sivilizatsiyasi va taraqqiyot bosqichlarini yaxlit holda namoyon etadi.

Markazda jamlangan nodir qo'lyozmalar va tarixiy manbalar ajdodlarimiz jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissingan yorqin timsolidir. Bu yoshlarimiz uchun katta ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki o'z tarixini bilgan, ajdodlari merosi bilan faxrlangan yosh avlodgina kelajakda yuksak natijalarga erisha oladi.

Islom sivilizatsiyasi markazi yoshlarimizni ilmiy ma'rifatga chorlovchi, ularni buyuk allomalarimiz yo'lidan borishga ilhomlantiruvchi muhim ma'naviy makon. Bu yerda shakllanayotgan ilmiy muhit yangi avlod olimlari va tadqiqotchilarini voyaga yetkazishga xizmat qiladi.



4
2026-yil 19-mart, 53-son

Respublika bo'yicha 2,8 million gektarda,
ya'ni sug'oriladigan ekin maydonlarining 66 foizida suv tejavchi texnologiyalarni
joriy qilishga erishildi.

YANGI O'ZBEKISTON

www.yuz.uz f yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Suv va hayot



TABIATNING BEQIYOS IN'OMI

RAQAMLI IRRIGATSIYA VA TEJAMKOR TEKNOLOGIYALAR

Mamlakatimizda keyingi yillarda suv resurslarini tejash bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlar nafaqat milliy, balki mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ne'matdan samarali foydalanish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, tejamkor texnologiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.



**Zafar MUSTAFOQULOV,
O'zbekiston fermerlari kengashi
raisi o'rinbosari**

samarali innovatsiyalardan biri sifatida baholamoqda.

Suv tejaydigan uskunalar qiymatining 30-40 foizi, sarflangan elektr energiyasi to'lovining esa 100 foizini davlat qoplab berayotgani fermerlarning qiziqishini yanada oshirdi. Hukumatning qo'shimcha kredit va lizing imtiyozlari esa texnologiyani ommaviy joriy etishga yo'l ochdi. Suv iste'molini aniqlash, namlik sensorlari, dron orqali monitoring va avtomat sug'orish tizimlari qo'llana boshlandi. Ayrim yirik xo'jaliklar ishlab chiqarish xarajatini 30 foizgacha tejashga erishmoqda.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi nutqida nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlari, yaqin va uzoqdagi mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar hal etishi lozim bo'lgan eng muhim masalalarga yechim topish bo'yicha aniq takliflarni bildirdi. Xususan, o'tkir tuz o'ylayotgan iqlim o'zgarishi muammolari, jumladan, Orol dengizi qurib qolishi, suv resurslarining taqchilligi, dunyo aholisining ikki milliarddan ortig'i toza ichimlik suvdan foydalanish imkoniyatiga ega emasligi ta'kidlandi.

Mamlakatimizda Suvni tejash bo'yicha butunjahon forumini o'tkazish rejalashtirilgan, suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash, global darajada innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun alohida "yo'l xaritasi" qabul qilish zarurligi bildirildi.

Ekologik o'zgarishlarning yana bir salbiy ko'rinishi — iqlim migratsiyasi kuchayib borayotgani tufayli bu masalada keng xalqaro sheriklik va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish bo'yicha Global pakt qabul qilish taklif etildi.

BMT tuzilmalari bilan hamkorlikda mintaqamizda qator yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirish tashabbusi ilgari surildi. Jumladan, EKOSOS va UNKTAD shafeligida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti masalalariga bag'ishlangan xalqaro forum o'tkazish, UNIDO bilan sanoatda "yashil" texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish, mintaqamizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, "yashil" makon barpo etish hamda demografik barqarorlikka erishish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish zarur.

Shu bilan birga, Bosh Assambleyaning Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy sheriklik va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan harakatlarini


Ulug' ne'mat bo'lgan suvning o'rnini hech narsa bosa olmaydi. U hayvonot va nabotot, butun borliqning tiriklik manbai. Global iqlim o'zgarishlari, yog'ingarchilik miqdori kamayishi va boshqa omillar ta'sirida sezilarli kamayib, ehtiyoj yildan yilga ortmoqda. Bugun suv Markaziy Osiyo xalqlarining tinchligi va farovonligini ta'minlovchi eng muhim resurslardan biri ekani sir emas.



**Dilshod ULUG'MURODOV,
'Yangi O'zbekiston' muxbiri**

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan suv resurslaridan oqilona foydalanish, transchegaraviy suvlarni adolati boshqarish va mintaqada suv xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qator muhim xalqaro tashabbuslar ilgari surilayotganining boisi ham shu. Ushbu tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlash, ekologik muammolarni hal qilish va davlatlar o'rtasida ishonchli hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Shu jumladan, Prezidentimiz tashabbusi bilan BMT shafeligida Orolbo'y mintaqasi uchun ko'p sheriklik trast jamg'armasi tashkil etilishi, BMT Bosh Assambleyasining Orolbo'y mintaqasini ekologik

Bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish masalalari konstruktiv ruhda hal etib kelinmoqda. 2025-yil 15-noyabrda strategik sheriklikni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston va Qozog'iston hukumatlari transchegaraviy suv obyektlaridan birgalikda foydalanish va ularni boshqarish to'g'risidagi bitimni imzoladi. Ayni paytda bitimni amalga oshirish uchun zarur ichki davlat tartib-taomillari mamlakatimiz tomonidan yakunlandi. Hujjatning kuchga kirishi uchun Prezidentimizning "Xalqaro



innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilinishi kabi qator samarali sa'y-harakatlarni eslash o'rinni.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2025-yilning 15-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan VII Maslahat uchrashuvida davlatimiz rahbari 2026-2036-yillarni "Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlar o'n yilligi" deb e'lon qilish hamda Suv xo'jaligi sohasida mintaqaviy kompetensiyalar markazini tashkil etish tashabbuslarini bildirdi.

— Qo'shni mamlakatlar bilan yuritilayotgan nihoyatda oqilona siyosat natijasida mintaqamizda suv xo'jaligi sohasida mutlaqo yangi hamkorlik muhiti shakllandi. Bu esa barcha tomonlar manfaatlarini teng hisobga olgan holda konstruktiv munosabatlarni barqarorlashtirish, transchegaraviy daryolardan samarali foydalanish, suv taqsimotini muvofiqlashtirishga mustahkam zamin yaratmoqda, — deydi suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyev. — O'zbekiston davlatlararo suv hamkorligi mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan mintaqaning barcha davlatlari bilan ochiq muloqotga tayyor.

Jumladan, Sirdaryo oqimi bo'yicha O'zbekistondan quyida joylashgan Qozog'iston bilan yurtimizni faqat daryoning o'zi emas, boshqa suv manbalari ham bog'laydi. Misol uchun, Sirdaryodan suv oluvchi va yurtimizning Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridan o'tuvchi Do'stlik kanali orqali Qozog'istonning Turkiston viloyati Yetitsoy va Muxtaaral tumanlaridagi ekin maydonlari sug'oriladi. Chirchiq daryosi havzasidan Zax, Xonum va Katta Keles kanallari orqali Qozog'istonning Turkiston viloyati Sariq'och, Qazig'urt tumanlari suv bilan ta'minlanadi. Qo'shni mamlakat hududidagi Chordara suv omboridan O'zbekiston hududidagi Amasoy suv omboriga suv olish imkonini mavjud.

shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Bitim transchegaraviy suv obyektlarini boshqarishda tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, sohaviy idoralar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni takomillashtirish va ikki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo'lida suv resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatlarimizning suv xo'jaligi sohasidagi mutaxassislari o'zaro tajriba almashib keladi. Toshkent shahridagi "Suvchilar maktabi"da qozog'istonlik mutaxassislar uchun o'quv seminari tashkil etish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida Markaziy Osiyoning transchegaraviy daryolari suv resurslaridan kompleks foydalanish bo'yicha qo'shma ishchi guruhi faoliyat ko'rsatmoqda. Uning yig'ilishlarida suv xo'jaligi sohasida qo'shma transchegaraviy loyihalarni amalga oshirish istiqbollari, suv resurslarini boshqarish tizimini isloh qilish bo'yicha tajriba almashish, shuningdek, Bahri tojik suv omborining ish rejimini kelishish kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston o'rtasida yozgi davrda Bahri tojik suv omborining ish rejimini kelishish kabi masalalar o'rganilgan. Ayni paytda Bahri tojik suv omborining ish rejimini kelishish kabi masalalar o'rganilgan. Ayni paytda Bahri tojik suv omborining ish rejimini kelishish kabi masalalar o'rganilgan.

Amudaryodan Surxondaryo viloyatida Amuzang, Qashqadaryo viloyatida Qarshi

magistral kanali nasos stansiyalari kaskadi, Buxoro viloyatida Amu-Buxoro mashina kanali nasos stansiyasi orqali suv olinadi. O'z navbatida, Qarshi magistral kanali orqali Turkiston hududiga suv yetkazib beriladi. Qarshi magistral kanali nasos stansiyalari kaskadining 6 ta nasos stansiyasi Turkiston hududida joylashgan. O'zbekistonlik suvchilar qo'shni davlat hududiga o'tib, ularni ishlatadi.

Bundan tashqari Qarshi magistral kanallaridan foydalanish boshqarmasi, Amu-Buxoro mashina kanallaridan foydalanish boshqarmasi tizimida Turkistonning 700 nafarga yaqin fuqarosi o'zbekistonlik mutaxassislar bilan birgalikda ishlaydi.

Turkiston Amudaryodan o'z hududidagi Qoragum va boshqa kanallar hamda kichik nasos stansiyalari orqali suv oladi. O'zbekistonning Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Turkistonning Toshovuz viloyati hududlarini suv bilan ta'minlovchi Tuyamo'yin suv ombori esa ikki mamlakat chegaralaridagi joylashgan. Undan chiqariladigan suv Turkmandaryo hamda Chapqirg'oq magistral kanallari, shuningdek, Tuyamo'yin gidrozuzelinig pastki qismi, Amudaryoning chap tomonidan Xonyop, Jumaboy soqqa, Qilichniyazboy va Qipchoq-Bo'zsu suv kanallari orqali Toshovuz viloyati hududlariga yetkazib beriladi.

O'zbekiston va Turkiston hukumatlari o'rtasida suv masalalari bo'yicha O'zbekiston — Turkiston hukumatlararo qo'shma komissiyasi ishlayotgan. Turkiston suv xo'jaligi sohasi bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy-tadqiqot universitetida 2000 nafarga yaqin turkman talabasi tahsil olmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston suv xo'jaligi hamda energetika idoralari o'rtasida To'xtag'ul suv omborida O'zbekiston va Qozog'istonda sug'oriladigan yerlarda vegetatsiya davrini barqaror o'tkazish uchun zarur bo'lgan suv hajmini to'plashga qaratilgan uch tomonlama hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Uch davlatning suv xo'jaligi va energetika idoralari rahbarlari uchrashuvlari yakunlari bo'yicha To'xtag'ul suv ombori sathining kritik darajagacha pasayib ketishining oldini olish, shuningdek, o'zaro elektr energiyasi yetkazib berishni ta'minlash masalalari yuzasidan mutamam ravishda bayonnomalar imzolab kelinmoqda.

Suv xo'jaligi vazirligining Xalqaro aloqalar va Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'limi boshlig'i Otabek Hazratovning ma'lum qilishicha, bugungi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan suv masalalari bo'yicha aloqalarni Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi va Davlatlararo suv xo'jaligi muvofiqlashtirish komissiyasida, suvdan foydalanish bo'yicha hukumatlararo ishchi guruhlari doirasida izchil rivojlantiryapti.

Yana bir yangilik. 2026-yil 25-26-mart kunlari Toshkent shahrida suv resurslarini boshqarish va suv xavfsizligi masalalariga bag'ishlangan yirik xalqaro forum — "Tashkent Water Week — 2026" o'tkaziladi. Forum O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan tashkil etilmoqda va unda davlat maktabi"da qozog'istonlik mutaxassislar uchun o'quv seminari tashkil etish yo'lga qo'yilgan.

"Tashkent Water Week"ning markaziy tadbiri Xalqaro suv forumi hisoblanadi. Forum doirasida Markaziy Osiyoda suv xavfsizligi, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi, suv infratuzilmasini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, forum doirasida suv va qishloq xo'jaligi, gidroenergetika va resurslar balansini, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar, ilim-fan va ta'lim kabi 8 ta tematik sessiya, taqdimotlar, uchrashuvlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bu tadbir Markaziy Osiyoda suv resurslarini barqaror boshqarish, suv tanqisligi muammolari va innovatsion yechimlarni muhokama qilish uchun muhim mintaqaviy platforma bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ulkan maqsadlar belgilangan.

O'tgan yili O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi qabul qilindi. Prezidentimizning 2024-yil 5-yanvardagi "Quy bo'yicha suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan dehqon va fermer xo'jaliklarining yer maydonini suv bilan ta'minlash maqsadida manbaning suvlik darajasidan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman kengashlaridan suv olish limitini tasdiqlash bo'yicha yangi mexanizm yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2025-yil 13-oktabrdagi "Suv sohasini raqamlashtirish jarayonini yanada jadallashtirish va barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda 2025-yil 14-oktabrdagi "Quy bo'yicha suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaning xususiy sektor uchun jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, endi yangi yondashuv asosida suv hisobini yuritish to'liq elektron shakliga o'tkaziladi. "Suv hisobi" axborot platformasi orqali foydalanilgan suv miqdori aniq hisoblanadi va iste'molchilarga elektron tarzda ma'lum qilinadi. Bu tizim hisob-kitoblarda inson omilini kamaytirish, ortiqcha qog'ozbozlikni bartaraf etish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'lumotlarning aniqligini ta'minlash maqsadida "Raqamli qishloq xo'jaligi" platformasi bilan integratsiya qilinadi.

Shu orqali sug'oriladigan yerlar, ekin turlari va suv limiti haqidagi ma'lumotlar avtomatik yangilab boriladi.

Shuningdek, sohadagi barcha ma'lumotni yagona tizimda jamlash uchun Suv xo'jaligi vazirligining "Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi" tashkil etiladi. Markaz suv balansini, nasos stansiyalari va suv sarfi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil etadi, qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Sohada "Davlat suv kadastri" axborot tizimi ishlab chiqiladi. U orqali suv resurslariga oid ma'lumotlar tegishli vazirlik va idoralardan yig'iladi hamda yagona bazada shakllantiriladi. Bu, o'z navbatida, ma'lumot almashish jarayonini soddalashtirib, hisobotlarni qog'ozda yuritish amaliyotini qisqartiradi. "Davlat suv kadastri" tizimini 2026-yil apreliga qadar to'liq ishga tushirish rejalashtirilgan.

Suv xo'jaligi nasos stansiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarish amaliyoti kengaytiriladi. 2026-yilda Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridagi nasos stansiyalarining 50 foizini, 2027-yilga borib esa Namangan viloyatidagi barcha nasos stansiyalarini xususiy sheriklikka berish rejalashtirilgan.

Bu borada Namangan viloyatining Chortoq tumanida "bir nasos — bir tizim" tamoyili asosida "Chortoq tajribasi" amalga oshiriladi. Bunda xususiy sherik iste'molchilarni suv limiti doirasida suv bilan ta'minlaydi, nasoslarga bog'langan maydonlardan hisoblangan suv solig'ining 40 foizi xususiy sherikka to'lab beriladi. Ushbu mablag' hisobidan suv hisobi avtomatlashtiriladi va nasos stansiyalari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinadi.



Respublika bo'yicha 2,8 million gektarda, ya'ni sug'oriladigan ekin maydonlarining 66 foizida suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilishga erishildi.

So'nggi yillarda tomchilab sug'orish tizimi jadal sur'atda kengaydi. Ayrim hududlarda paxtachilik, bog'dorchilik va sabzavotchilikda 40-60 foizgacha suv tejashiga erishildi. Bu nafaqat suvni, balki o'g'it va energiya sarfini ham kamaytiradi.

Lazerli tekislash qishloq xo'jaligi yerlarida suvning bir xil tarqalishini ta'minlaydi. O'suv davrida hosildorlikning 15-20 foiz oshishi kuzatildi. Bu agrotexnologiyani fermerlar eng

qo'llab-quvvatlashga doir rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi.

O'zbekiston tajribasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkiston uchun ham dolzarb. Butun mintaqada Amudaryo va Sirdaryo havzasidagi suv tanqisligi bilan bog'liq umumiy xavfni his qiladi.

Mamlakatimiz suv tanqisligi kuchayib borayotgan ayni sharoitda zamonaviy sug'orish texnologiyalariga o'tishda qo'shni davlatlarga ham namuna bo'lmoqda. Yutuqlar salmoqli. Shu bilan birga, kelgusida yanada keng islohotlar o'tkaziladi. Eng muhimi, bu jarayon nafaqat milliy, balki mintaqaviy strategik ahamiyatga ega.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Daxldorlik hissi

IQTISODIY SAMARADORLIK

MALAKALI KADRLARGA BOG'LIQ

Raqamli texnologiyalar zamonaviy davlat rivojida muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, yurtimizda yoshlarning axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha bilim va salohiyatini namoyon qilishi, tahliliy fikrlashi, iqtidori va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur sharoit yaratishga katta e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor. Xususan, BAA bilan hamkorlikda 2019-yilda boshlangan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 2 milliondan ortiq yoshlarimiz bilim va ko'nikmalarini oshirdi.



“El-yurt umidi” jamg'armasi ko'magida 100 ga yaqin o'g'il-qizlarimiz dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olmoqda. Qolaversa, mamlakatimizda axborot texnologiyalari xizmati eksporti hajmi o'tgan yillardagiga nisbatan 4,5 karra o'sib, 1 milliard dollarga yaqinlashgan ham sohada ixtisoslarni natijadorligini tasdiqlaydi.

bozorini rivojlantirish, mahalliy korxonalarni eksport darajasiga olib chiqish, yurtimizda xalqaro kompaniyalar ofislarini ochish kabi ko'plab choralar ko'zda tutilgan.

Ayni paytda ta'lim, bank ishi, bojxona, moliya, qishloq xo'jaligi, geologiya va kadastr kabi yo'nalishlarda raqamli transformatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Yangi AT kompaniyalari tashkil etilib, chet el samoyasi tobora ko'p jalb etilmoqda. Yoshlarni mazkur soha bilimdoni etib tayyorlashda davlat tashkilotlari bilan birga nodavlat tashkilotlarning ham salmoqli o'imi bor.

— Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan xalqaro AT sertifikatiga ega yoshlarning o'qish hamda ushbu sertifikatni olish xarajatining 60 foizgacha qismi qoplab berilayotir. Shuningdek, ingliz tilini bilish bo'yicha B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega o'g'il-qizlarning xalqaro AT sertifikatini olish xarajati esa to'liq qoplanmoqda, — deydi Toshkent ta'lim akademiyasi o'quv markazi rahbari Shohrux Yerjanov. — Faoliyat boshlaganimizga qariyb uch yil bo'ldi. Hozir asosiy maqsadimiz sohaga zamonaviy innovatsiyalarni, xorijiy tajriba asosida zamonaviy uslublarni joriy etish, yoshlar va xotin-qizlarning bilimi hamda ko'nikmasini oshirgan holda bandligini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat. O'quv markazimizda yoshlar o'ndan ortiq yo'nalish bo'yicha kasb-hunar o'rganadi. O'tgan davrda bu yerda 2000 dan ziyod yosh AT bo'yicha ta'lim olib, maxsus sertifikatga ega bo'ldi. Birgina o'tgan yili ta'lim muassasini bitirgan 300 dan ortiq yigit-qiz

xalqaro ta'lim sertifikatini oldi. Shuningdek, AT sohasiga oid yangiliklar, ixtirolar qilish, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yogba chiqarish uchun shart-sharoit yaratish hamda ilmiy faoliyatga jalb etishni maqsad qilganmiz. Bugun mehnat bozori, ish beruvchilar juda talabchan. Birgina chet tilini bilishning o'zi yetarli emas. Aynan shuning uchun ham ta'lim muassasasi ushbu yo'nalishda xalqaro CompTIA, Oracle, Juniper tashkilotlari bilan hamkorlikda bitiruvchilarga shu tashkilotlarning xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlarini beradi. Bugun o'ziga munosib, daromadli ish topaman degan har bir yosh uchun bunday sertifikatlar juda muhim. Bu kabi sertifikatga ega yoshlar O'zbekistonda turib ham boshqa mamlakatlarda onlayn frilanserlik qilishi mumkin.

Ta'lim markazi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda qator xayrli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, maktab o'quvchisi yoki bitiruvchisi kambag'al oila reyestriga kiritilgan bo'lsa, mutlaqo bepul ta'lim olishi mumkin. Ahamiyatli, tinglovchilar boshlang'ich jarayonda to mutaxassis darajasiga yetguncha tayyorlanadi. Shu bilan birga, ishsiz fuqarolar ham qisqa muddatli kurslarda o'qitilib, bandlik bo'limiga yuborilmoqda.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



Fikr

Yangi O'zbekistonni siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish borasidagi islohotlarda inson huquqlari, ayniqsa, ayollar va bolalar huquqlarini ta'minlash asosiy o'rin egallaydi. Yurtimizda xotin-qizlar va bolalarning ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, salomatligini mustahkamlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida qonunchiligimizda huquqiy kafolatlar mustahkamlangan.

HAR BIR AYOL HIMOYALANGAN, HAR BIR BOLA XAVFSIZ VA BAXTLI

Jumladan, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgarishlar kiritilgan. Jinoyat deb hisoblovchi hamda ayollar va bolalarni qo'shimcha himoya mexanizmlari bilan ta'minlaydigan Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun qabul qilingan.

Qonunlarimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish hamda ularga zo'rovonlik va tazyiq qilgan aybdorlarga tegishli javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, tergov va sudlarda bu kabi ishlarni sifati ko'rib chiqish, aybdorlarga qilmishiga yarasha qonuniy chora ko'rish, jabrlanganlarning huquqlarini ishonchli himoya qilish bilan bog'liq masalalarda qonunlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud edi.

Prezidentimizning shu yil 3-martdagi “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rovonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida”gi farmoni bu boradagi ishlarni yuqori bosqichga ko'tarish, erta nikohning oldini olish, zo'rovonlikka qarshi tizimni kuchaytirish va jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Xususan, hujjat bir necha muhim vazifani qamrab olgan. Avvalo, ayollar va bolalarga nisbatan har qanday tazyiq va zo'rovonlikka qarshi kurash tizimi yanada kuchaytiriladi.



Fotima ISMOILOVA, Jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tumani sudi raisining o'rinbosari

Jumladan, farmonga binoan voyaga yetmagan shaxslar bilan nikoh tuzishga da'vat etganlik (qiziqirganlik) va uni targ'ib qilganlik, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish va FHDYO organlari, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, diniy idora vakillarining erta nikoh yoki 16 yoshgacha bo'lgan homiladorlik bilan bog'liq holatlar hamda boshqa qonunbuzilishlar to'g'risida ichki ishlar organlari va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga xabar bermaganligi uchun ma'muriy javobgarlik belgilash nazarda tutilmoqda.

tartibda tibbiyot muassasasiga joylashtirish zarurligi belgilanmoqda.

Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy amaliyotni o'rganish, ularni aynan jinsiy sababli qasddan o'ldirish (femitsid), oila a'zolarini qasddan o'ldirish (familitsid), shaxsni erkiga qarshi noqonuniy ta'qib qilish (stalking), internet yoki ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladigan zo'rovonlik (kiberzo'rovonlik), voyaga yetmagan shaxslardan jinsiy maqsadda foydalanish hamda shu maqsadda internet orqali voyaga yetmagan shaxsning ishonchini qozonish (onlayn gruming) uchun qonunchilikda javobgarlik belgilash taklif etildi.

Eng muhimi, farmon erta nikohning oldini olish, nikoh yoshini 21 yoshga yetkazish orqali yoshlarni ongli va mas'uliyatli oila qurishga rag'batlantirish, homilador talaba-qizlarga va yosh onalarga oliy ta'limni davom ettirish imkonini yaratish, jinsiy jinoyatlar bo'yicha tergovni faqat prokuraturaga topshirish, agressorlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish kabi kompleks choralarni qamrab oladi.

Bu choralar natijasida jabrlanuvchilarning himoyasi kuchayadi, tergov va sud jarayonlarining sifati oshadi, zo'rovonlik qurbonlariga tez va samarali yordam ko'rsatiladi. Zo'rovonlik holatlarini keskin kamayadi va jazo muqarrarligi ta'minlanadi.

Har bir ayol o'zini himoyalagan, har bir bola esa xavfsiz va baxtli his qilishi — yangi O'zbekistonda eng muhim maqsaddir. Jamiyatda tinchlik, o'zaro hurmat va adolat qaror topsa, insonlar o'zini erkin va baxtli his qiladi. Odamlar tinch va hayotdan rozi yashasa, davlat ham barqaror rivojlanadi.

Shunday ekan, barchamiz birgalikda zo'rovonlikka qarshi murosasiz jamiyat qurish, oila institutini mustahkamlash va kelajak avlod uchun yanada adolati, mehribon va xavfsiz muhit yaratishga hissa qo'shaylik. Zero, mazkur farmon inson huquqlarini ta'minlash, oila institutini mustahkamlash va kelajak avlod uchun xavfsiz hamda barqaror jamiyat barpo etish yo'lidagi muhim qadamlardir.

ISHLAB CHIQARISHDAGI INNOVATSIYA — TARAQQIYOT POYDEVORI



Botir USMONOV, Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor

Insoniyat tarixining bugungi taraqqiyot bosqichi shuni yaqqol ko'rsatib turibdiki, ilm-fan va innovatsiyalar rivojisiz hech bir jamiyat yuksak maqsadlariga erisha olmaydi. Jahon miqyosidagi globallashuv jarayoni, raqobat muhiti tobora keskinlashuvi har bir davlatdan o'z iqtisodiyotini zamonaviy bilimlar, ilg'or texnologiyalar va uzluksiz izlanishlar asosida qayta qurishni talab etmoqda. Mamlakatimizdagi keng ko'lami islohotlardan asosiy maqsad ham aynan natijadorlikka yo'naltirilgan ilm-fan va innovatsion faoliyatning yangi, samarali boshqaruv tizimini yaratishdan iborat.

Yurtimizda yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyati keskin kengaytirildi. Jumladan, qisqa muddatda respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari soni ikki yarim barobar

ko'payib, umumiy miqdori 200 dan oshgani fikrimizning yorqin dalilidir. Shu bilan birga, navqiron avlodni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 9 foizdan 38 foizgacha oshirilgani jamiyatda intellektual salohiyatli qatlamning shakllanishiga xizmat qilmoqda. 380 dan ortiq oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarning global axborot makonidagi tegishli resurslar bilan integratsiyalashuvi ta'minlandi. Natijada mahalliy olimlarning xorijiy nufuzli nashrlardagi ishtiroki ikki yarim barobar ko'paydi. 2017-yildan boshlab tizimning uchinchi muhim komponenti bo'lgan ishlab chiqarish sohasini ilm-fan bilan bog'lash orqali bosqichma-bosqich yuksalish jarayoniga asos solindi.

Shunday bo'lsa-da, erishilgan natijalar bilan cheklanib qolish bugunning talablariga javob bermaydi. Ilm-fan va innovatsion faoliyat ishtirokchilari tashqi hamkorlar bilan aloqa o'rnatdi hamda xalqaro axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati kengaydi. Biroq shunday sharoitda ham mahalliy darajadagi muammolar o'z yechimini kutmoqda. Xususan, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi ichki integratsiya jarayoni hanuzgacha sust kechmoqda. Mahalliy ilmiy-axborot infratuzilmasi subyektlarining o'zaro tarqoq holda faoliyat yuritayotgani va axborotlarning qiyosiy tahlilidagi raqamlar nutomonosibligi kabi omillar soha rivojiga ma'lum ma'noda to'siq bo'lmoqda. Ushbu bo'shliqlarni to'ldirish mahalliy ilmiy ishlanmalarni to'g'ridan to'g'ri iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etishni tezlashtirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda mintaqaviy innovatsion tizim tushunchasi mohiyatiga alohida to'xtalib o'z tish maqsadga muvofiq. Hududlarda soha va sohalararo ichki hamda tashqi integratsiyani kuchaytirish orqali mahalliy iqtisodiyotni yuksaltirish mumkin. Zamonaviy infratuzilma



Kamolot pillapoyasi

obyektlari, xususan, texnoparklar, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda sanoat korxonalari faoliyatining o'zaro uzviyligiga erishish mazkur tizimning asosiy shartidir. Bunday yondashuv mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga zamin yaratadi. Qolaversa, innovatsion va investitsion jarayonlar, shuningdek, raqamli hamda “yashil” iqtisodiyotni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega. Yaratuvchanlikni rag'batlantirish, ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish hamda ilmiy salohiyat va axborot-resurs markazlarining boy zaxiralardan oqilona foydalanish mintaqaviy taraqqiyotning kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida eng hal qiluvchi omil sifati

ta'lim-tarbiya tizimidir. Aynan shu tizim orqali jismoniy, axloqiy, ma'naviy va ruhiy jihatdan barkamol, o'z sohasining nazariy va amaliy bilimlarini puxta egallagan milliy kadrlar avlodi tayyorlanadi. Bevosita shafaqatsiz raqobat muhitida toblanishi yosh mutaxassislarning soha amaliyotida, ta'bir joiz bo'lsa, ishlab chiqarishning qaynoq doshqozonida shakllanishi kelajakdagi muvaffaqiyatlarining asosiy garovidir. Bunday murakkab vazifa esa, o'z navbatida, oliyog'oh, laboratoriya va zavod o'rtasida mustahkam ko'prik barpo etilishini taqozo qiladi. Shu bilan birga, ilmiy-axborot infratuzilmasi manbalarning “ilm-fan — ishlab chiqarish — innovatsiya” tamoyili asosida uzviy ishlashi talab etiladi. Shundaygina muammoning paydo bo'lishidan ilmiy g'oyaning tug'ilishigacha, intellektual mulk

obyekti ishlab chiqilishidan standartlar joriy etilib, real innovatsiya sifatida iqtisodiyotga kirib borishigacha bo'lgan ekumuhit zanjiri to'laqlik harakatiga keladi.

Taraqqiyotimizning hozirgi o'ta mas'uliyatli bosqichi yuqori malakali oliy va o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash bilan cheklanib qolmay, ilmiy tadqiqot faoliyatini yanada takomillashtirishni kun tartibiga qo'yimoqda. Mamlakatdagi intellektual va moddiy resurslarni yirik ilmiy-amaliy dasturlar hamda istiqbolli innovatsion loyihalarga yo'naltirish zarur. Bu resurslar iqtisodiyotning tezkor rivojiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni ishlab chiqarish tarmoqlari bilan uyg'unlashtirgan holda shakllantirish esa davrning kechiktirib bo'lmaz talabidir. Ushbu jarayonda auditoriyadagi nazariya, laboratoriyadagi sinov va seldagi amaliyotning o'zaro uzviy aloqadorligini ta'minlash tizimli islohotlarning bosh mezoniga aylanmoq' tuzilim.

Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining bevosita ishlab chiqarish korxonalari bilan innovatsion hamkorligini mustahkamlash va yuqori bosqichga olib chiqish maqsadida qator tizimli yondashuvlarni amalga oshirish keng joriy etish maqsadiga muvofiq. Dastlab oliyog'ohlardagi mutaxassislik kafedralari va ilmiy laboratoriyalar negizida muayyan ishlab chiqarish muammosiga yo'naltirilgan innovatsion guruhlarni tashkil etish lozim. Ular faoliyatining samaradorligini oshirish uchun yagona ma'lumotlar bankini shakllantirish talab etiladi. Bu bank yil kesimida muntazam yangilanib borishi hamda barcha sohada g'orxonra, tashkilot va ilmiy muassasalarni o'zida jamlashi lozim. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlaridagi ilmiy-texnik muammolarning yagona axborot bazasini yaratish orqali olimlarimizning izlanishlarini aynan jamiyat

uchun zarur yechimlar tomon yo'naltirish mumkin.

Joylarda soha komponentlarining real holatini tanqidiy tahlil qilish, uzviy hamkorlikda ishlashni kafolatlovchi ta'sirchan mexanizmlarni qo'llash orqali davlat va jamiyat hayotida farovonlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi ulkan natijalarni o'lga kiritish mumkin. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari hal etishga yo'naltirilgan jamiyat hamkorligi natijasida oliy o'quv yurtlari, ilmiy markazlar va zavodlar o'rtasidagi integratsiya mustahkamlanadi. Soha komponentlari integratsiyasida yuzaga kelayotgan muammolar tizimli tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar dasturi shakllantiriladi. Har bir subyektning o'z vazifasini to'laqlik anglishi, yondosh sohalaridagi fan, ta'lim va amaliyot uyg'unlashuvi orqali ichki va tashqi aloqalar kuchayadi hamda mamlakatda sog'lom innovatsion muhit qaror topadi.

Ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi bunday chuqur integratsiyalashgan yondashuv orqali jamiyatda bilimlar konsentratsiyasi ta'minlanadi, noyob ixtirolarning vorisliyi asosida avlodlardan avlodga o'tib sayqallanishga zamin yaratiladi. Ularning ilmiy laboratoriyalardan chiqib, yuqori darajadagi innovatsiya maqomiga ko'tarilishi va yirik ishlab chiqarish klasterlari tizimiga singib ketishi uchun barcha zarur shart-sharoit hozirlanadi. Mamlakat miqyosida butunlay yangi ilmiy ishlanmalarga asoslangan innovatsion kichik korxonalar va startaplar faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini ishlab chiqiladi. Bunday korxonalar yuqori darajadagi bilim va texnologik yechimlarni talab qiladi. Shu bilan birga, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keskin ortadi.

Ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, bu uch buyuk kuchni yagona maqsad yo'lida birlashtirish mamlakatimiz kelajagini qurishda eng muhim qadamdir. Bu yo'l mamlakatimizni rivojlangan, intellektual salohiyati baland va iqtisodiyotni raqobatbardosh davlatlar qatoriga olib chiqadi. Shu bois, har bir o'lim, har bir pedagog va har bir tadbirkor daxldorlik tuyg'usini anglagan holda ertamiz farovonligi uchun xizmat qilmog' ayni muddo.



Omonlik, omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, Yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik!

Bolaligimizda ko'klamning ilk nishonalari — siyrak tortgan qor qo'nyidan qimtinibgina bo'y cho'zayotgan oq, sariq boychechaklarni uzib, suyunchi so'rab yugurganimizda bobo-buvilarimiz har gal yuz-ko'ziga surtib takrorlaydigan aytim edi bu. Biz — bolalar u damda, ehtimol, kattalarning shu kabi bir-biridan qiziq, allaqanday sirli so'zlari, qo'shiqlariga, go'yoki shak-shubhasiz qilinishi lozim bo'lgan muqaddas amrdek bajariladigan xatti-harakatlariga, ularning mazmun-mohiyatiga tushunmagan, anglamagandirmiz. Lekin savqi tabiiy ravishda barchasini tabiat bilan qandaydir uyg'unligini sezar, ularga taqlidan tushunib-tushunmay takrorlab yurardik o'sha aytimlarni, benihoya tabiiy qabul qilardik.

Umuman, qishning sovuq nafasi asta-sekin chekinib, tabiatda kechadigan o'zgarishlar, yashillanish insonlar qalbiga ham o'zgacha ta'sir etadi, go'yo uzoq o'tmishdan kelayotgan, tuproq hidiga qorishib ketgan qadimiy bir ohang keza boshlaydi tomirlarimizda. Bahor bilan insonlarning asrlar davomida to'plangan ruhiy tajribasi, umid va tilaklari, qo'shiqlariga singib ketgan yashovchan xotirasi ham qayta uyg'ongandek bo'ladi.

Mavsumiy marosimlar ana shu xotiraning eng qadimiy qatlamlaridan biridir. Yil fasllari almashgani sayin inson ham tabiat bilan birga yashashni, uning havosi bilan nafas olishni o'rgangan. Dunyoda biror xalq yo'qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlar nishonlanmasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o'tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o'yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Mazkur tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o'rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to'ldiradi, mukammallashtiradi. Demak, urf-odat, an'analar negizida xalqning tarixiy o'zligi yashab, avlodlar avlodga o'tib kelar ekan, ularga bot-bot qaytaverishimizda ham ichki bir ruhiy ehtiyoj bo'lsa, ne ajab. Ayni ma'noda, xalqimizning bir necha ming yillik o'tmish xotirasini o'zida jo etgan Navro'z tantanasida arafasida ushbu bayram bilan, ko'klam bilan bog'liq mavsumiy marosimlar haqida yana bir bor so'z yuritishning, o'ylaymizki, ayni vaqi.

Bahoriy marosimlar folklori xalq madaniyatining ayniqsa boy va rang-barang qatlamlaridan biridir. Bu marosimlar orasida "Boychechak xabari" yoki boychechak sayli,



Asliddin ABDURAZZOQOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Qozon to'ldi", Navro'z sayli, sumalak sayli, lola sayli, "Guli surx" yoki qizil gul sayli, "Shox moylar", shuningdek, yomg'ir yog'dirish yoki uni to'xtatish bilan bog'liq marosim aytimlari alohida o'rin egallaydi. "Sust xotin", "So'z xotin", "Chayla qozoq" kabi marosimlar xalqning tabiat bilan bog'liq tasavvurlari, ob-havo hodisalarini ramziy tarzda anglashga bo'lgan urinishlarini aks ettiradi. Bularning barchasi xalqning qadimiy dunyoqarashi, mifologik tasavvurlari va tabiat bilan uyg'un hayot tarzining badiiy ifodasidir.

Jumladan, yurtimiz hududida an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan gul sayillari orasida eng qadimiy va keng tarqalgan marosimlardan biri "Boychechak xabari"dir. Bu marosim tarixan magik xarakterga ega bo'lgan qadimiy umudlardan biri sifatida Navro'z arafasidagi shodiyonalar qatorida o'tkazilgan. Ba'zi hududlarda bolalar bir dasta boychechakni uzun yog'ochning uchiga bog'lab, uni baland ko'tarib, qishloq ko'chalarini aylangan:

Urf-odat, an'analar negizida xalqning tarixiy o'zligi yashab, avlodlar avlodga o'tib kelar ekan, ularga bot-bot qaytaverishimizda ham ichki bir ruhiy ehtiyoj bo'lsa, ne ajab.

Boqiy meros

TERAN ILDIZLARGA QAYTISH AYYOMI



Adirlar to'la chechak, Biz keldik ucha-ucha, Boychechagim-boychechak, Kutib oling, hoy chechak...

Mazkur odat orqali bahorning kelgani, qishning ortga chekingani ramziy tarzda e'lon qilingan. Qadimiy boychechak marosimlarida qish va ko'klam kurashini ifodalovchi sahnalar ham mavjud bo'lgan. Unda qish va yoz timsollari ramziy jang qilib, aytim-qo'shiqlar orqali bahslashgan. Bu sahnalarda tabiatdagi faslar almashuvi xalqona tasavvurlar vositasida jonlantirilgan. Marosim davomida odamlar Navro'zga sog'omon yetib kelgani uchun shukrona aytib, bir-birlariga ezgu tilaklar bildirgan.

Xalq tafakkurining betakror mo'jizalaridan biri bo'lgan Navro'z bayrami ana shu bahoriy marosimlar tizimining eng ulug'i sifatida zamonalar osha yashab kelmoqda. Tabiat va jamiyatdagi yangilanishni o'zida mujassam etgan bu bayram xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi, milliy an'analari va badiiy tafakkurining eng muhim yutuqlaridan oziqlanib, asrlar davomida boyib, takomillashib borgan. Ayni davrda nafaqat tabiat, balki inson qalbi ham yangilanadi, yasharadi. Shu bois, Navro'z sayillari xalq qalbiga quvonch, mehr-oqibat va ezgu umidlar baxsh etadigan hayotbaxsh shodiyona sifatida qadrlanadi. Uning mazmuni va tuzilishida ajdodlarimizning qadimgi mifologik tasavvurlari bilan birga zamondoshlarimizning qarashlari

ham mujassam bo'lib, keng ma'naviy qatlamni o'zida jamlagan.

Bayram kunlari xalq o'yinlari, ko'pkari, kurash, arg'imchoq uchish, varrak uchirish kabi qadimiy an'analar yana jonlanadi. Folklor-etnografik jamoalar, lapar va o'lan ijrochilari, hunarmandlar ko'rik-tanlovlari, askiyachilar bellashuvlari bayram kayfiyatini yanada boyitadi. Mahallalar obodonchiligi, oilalar farovonligi, mehr-oqibatni targ'ib etuvchi turli tanlovlar esa Navro'z sayillarning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Navro'z bayramini sumalaksiz tasavvur qilish qiyin. Qadimdan xalqimiz ushbu shodiyonaga tayyorgarlikni maysa undirish va sumalak pishirishdan boshlagan. Ajdodlarimiz Navro'z oqshomida katta qozonlarda sumalak qaynatib, yangi yil barakali va serhosil bo'lishiga umid bog'lagan. Sumalak pishirilayotgan davrada onaxonlar qadimiy qo'shiqlar, bayt va g'azallar kuylab, bayram fayziga yanada fayz qo'shgan.

Sumalak bilan bog'liq marosimlar orasida Amudaryo bo'yilarida keng tarqalgan "Ashshadarozi" marosimi alohida e'tiborga molik. Mazkur marosim Xorazm xalq teatriga qadimiy an'analarini o'rganish jarayonida aniqlangan. Sumalak pishirilayotgan paytda uzun tayyoqdan yasalgan qo'g'irchoq — Ashshadarozi sahnaga olib chiqilgan. Unga ayol ko'yilgi kiygizilib, bosh qismiga ro'mol o'ralgan, boshiga do'ppi qo'yilgan holda kelinchak timsolida bezatilgan. Ashshadarozi ko'targan ayol davraga kirib kelganda aytishuv va qo'shiqlar boshlanib, marosim o'ziga xos xalq tomoshasiga aylangan. Erkakcha kiyingan ayol bilan Ashshadarozi aytishuvi, qo'shiqlari davra ahliga quvonch bag'ishlagan.

Marosimlarning tub mohiyatida xalqning qadimiy mifologik tasavvurlari, qish va yoz kurashi, tabiatdagi hayot aylanishi haqidagi qarashlarini ilg'ash qiyin emas. Masalan,

xalqimizning bahor fasliga bog'langan marosimlari orasida qadimdan yashab kelayotgan an'analaridan biri — halinchak uchish marosimini aytish mumkin. U bahorning quvonchli kayfiyati bilan uyg'unlashgan xalq sayillarining ajralmas qismi sanaladi. Bayram kunlari, ayniqsa, Navro'z arafasida yoki sayillar davomida qiz-juvonlar bir joyga to'planib, bog'-rog'larga sayrga chiqqan. Daraxtlar, ayniqsa, azim o'rikning mustahkam shoxlariga arqon tashlab, ulardan arg'imchoq — halinchaklar yasashgan. Bahorning ildiz shabdasini, atrofini qoplagan gul hidlari, qushlarning sayrashi orasida hamma navbati bilan arg'imchoq uchgan.

Buxoro viloyatining Qorako'1 tumanida yashagan Yaxshigul momo Mulla Niyozberdi qizining eslashicha, bu marosimga oddiy o'yin sifatida qaralmagan. Xalq orasida shunday e'tiqod mavjud bo'lgan: kim Navro'z kunlari arg'imchoq uchsa, yil davomida bilib-bilmay qilgan gunohlari go'yo shu uchib bilan to'kilib ketadi, inson ruhiy jihatdan yengillik topadi. Shu sababli keksa momolar ham yoshlar bilan birga hazil-huzul aralash arg'imchoqqa chiqqan. Ular "Arg'imchoq uchsak savob bo'ladi, og'irligimiz yerga to'kiladi, qushdek yengil bo'lamiz", deb kulishib, bahoriy shodiyonaga o'zgacha fayz bag'ishlagan. Nabiralar esa bu manzarani zavq bilan kuzatib, momolarimizning yoshiga yetaylik degan niyatda arg'imchoq ularni tutib, halinchakni harakatlantirib turgan. Shu tariqa bir qarashda oddiy o'yindek ko'ringan marosim, aslida, avlodlar o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni mustahkamlagan, bahorning quvonchli ruhini birgalikda his etishga xizmat qilgan.

Navro'z bayrami bilan bog'liq marosimlar tizimida alohida o'rin tutadigan sayillardan yana biri — "Qizil gul sayli". U qadimiy agrar e'tiqodlar va hosildorlik g'oyalari aks ettiradigan umumxalq bayramlaridan. Bahor kelib, qizil gullar ochila boshlagan paytda xalq sayilga chiqib, tabiatning yasharishi va hosilning barakali bo'lishini nishonlagan. Sayil o'ziga xos qo'shiqlar tizimiga ega bo'lib, unda xalq qo'shiqchilik san'ati, raqs, o'yin folklori, xalq teatri unsurlari, hunarmandlik namoyishlari, turli urf-odat va marosimlar mujassam bo'lgan. Shu bois, bu sayil nafaqat tabiat yangilanishini nishonlash, shu bilan birga, xalqning badiiy didi va ijodiy salohiyatini namoyon etuvchi katta madaniy hodisa hamdir.

Shu ma'noda, folklorga, xususan, bahoriy aytimlarga ham faqat o'tmishdan qolgan esdalik o'laroq qarash, baho berish noto'g'ri bo'lardi. Ular, hech shubhasiz, bugungi inson uchun zarur bo'lgan ichki tayanchlardan biridir. Marosimlar, xalq qo'shiqlari odamlarni g'ayrushuuriy ravishda birlashtiradi. Kim ijro etishidan, kim tinglovchi ekanidan qat'i nazar, hamma bir xil tuyg'uni boshdan kechiradi. Shu orqali millat o'zining teran ildizlariga qaytadi, o'zini, o'zligini qayta anglaydi. Bugun ulami unutishga, eskilik sarqitidek munosabatda bo'lishga mulqo haqqimiz yo'q. Zotan, suvni muqaddas bilib ulg'aygan bola unga hech qachon chiqindi tashlamaganidek, ajdodlarning madaniy va ma'naviy merosidan yaxshi xabardor inson ham aslida kim ekanini aslo unutmaydi.



Dil izhori

Prezidentimiz farmoniga binoan, Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimiz qatori "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Bu qalbinga cheksiz faxr-iftixor tuyg'usini olib kirdi. Oddiy ustozning mehnati yuksak e'tirof etilgani nafaqat mening, balki ustozlik maqomidagi barcha ayol-qizlar mehnatiga berilgan yuksak baho desam, mubolag'a bo'lmaydi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM
 Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV
 MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

E'TIROF MAQSAD VA TASHABBUSLARGA QANOT BO'LDI

1985-yildan buyon Farg'ona imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumda ishlab chiqarish ta'limi ustasi bo'lib ishlab kelaman. Bu — sabr, mehr va yuksak mas'uliyat talab qiladigan yumush. Nogironligi bor shaxslar bilan ishlash oson emas, albatta. Mashg'ulotlarda har bir yoshning dunyoqarashi, xohish-istaklari, imkoniyatlarini inobatga olish muhim. Keyingi yillarda barcha yoshlar, xususan, imkoniyati cheklanganlarga kasb-hunar o'rgatish, ta'lim muassasalarining moddiy-

texnik bazasini mustahkamlashga e'tibor kuchaydi.

Ish tajribamdan kelib chiqib, "Ortopedik va profilaktik poyabzal tikish ishlari", "Poyabzal tag qismini birlashtirish usullari", "Milliy poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasi" mavzularida ochiq dars va seminarlar o'tib kelyapman. 2021-yili tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ortopedik poyabzal ishlab chiqarish loyihasida ishtirok etdim. 2022-yildan buyon "Nurli maskan" maktab-internatlarida o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarini tashkil etish,

tajriba-sinov loyihasiga bosh-qosh bo'lib kelyapman. O'qishni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish, dual ta'limga asoslangan mashg'ulotlar sifatini va samaradorligini oshirish maqsadida poyabzal ishi yo'nalishi o'quvchilarining amaliyoti "Uzsalaman" AJ korxonasida tashkil etilgan. Bu nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, o'z kasbining mohir ustalari bo'lib kamolga yetish imkonini beryapti.

Hayotga quvonch, umidbaxsh nigoh-la qaraydigan yoshlar bilan ishlashdan kuch-quvvat olaman. Ularning vaqtini behuda

o'tkazmaslikka harakat qilaman. Izlanishdan to'xtamayman. Qirg'ikki yildan buyon bita ustaxonada mehnat qilaman. O'quvchilarim tayyorlagan mahsulotlarni ko'rib, ularning yutuqlari haqida eshitganimda barcha charchog'im unutiladi.

“ Davlat mukofoti bilan taqdirlanganimni eshitib, birinchi bo'lib onamga qo'ng'iroq qildim. Yuksak e'tirofdan ko'ngli sevinchga to'lgan onam alqab, duo qildi.

Gulbahorxon MAMATQULOVA, Farg'ona imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumining ishlab chiqarish ta'limi ustasi, "Shuhrat" medali sohibi